



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

XORAZM VILOYATINING
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-iyun*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 62-224-65-09*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruvin qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **6 045** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **69** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **5 976** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YaTT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida 2024- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **6 057,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **107,4 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **236,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **66,5 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **5 821,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **110,2 %**), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 162,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **111,3 %**) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	6 057,8	107,4
Urganch sh.	1 698,7	108,9
Xiva sh.	266,4	105,3
Bog'ot	317,4	107,6
Gurlan	495,5	110,5
Qo'shko'pir	267,7	106,7
Urganch	768,5	103,2
Hazorasp	629,7	107,4
Tuproqqa'l'a	136,2	108,3
Xonqa	379,6	104,2
Xiva	209,0	104,6
Shovot	456,8	110,0
Yangiariq	275,5	108,4
Yangibozor	156,9	110,5

2024- yilning yanvar-iyun oyida 2023- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan viloyatning Yangibozor hamda Gurlan tumani (**110,5 %**), Shovot tumanida (**110,0 %**) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati
dinamikasi (yanvar-iyun)**

92,5%

104,1%

112,8%

103,3%

107,4%



3 660,6



4 323,9



4 478,4



5 280,5



6 057,8

2020- y.

2021- y.

2022- y.

2023- y.

2024- y.

So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan **112,8 %** ni tashkil qildi.

**2023- yilning iyulidan 2024- yilning iyuniga qadar chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati,
oylar kesimida (foizda)**



2024- yilning yanvar-iyun oyida o'sish sur'ati **107,4 %** ni tashkil qildi.




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Urganch shahrida **28,0 %** bilan **1 698,7 mlrd. so'mni** tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa Tuproqqa'l'a tumanida **2,2 %** bilan **136,2 mlrd. so'mni** tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar-iyun oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **5 821,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **10,2 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **96,1 %** ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2023- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **33,5 %** ga kamaydi va **236,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **3,9 %** ulushiga to'g'ri keldi.




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

108,9	Hazorasp
109,6	Yangibozor
110,7	Gurlan
110,8	Shovot
116,5	Urganch sh.

Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

116,6	Bog'ot
129,3	Yangibozor
145,4	Tuproqqa'l'a

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Yirik korxonalar


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tuproqqa'l'a (**99,8 %**), Yangiariq va Gurlan (**99,5 %**) tumanlari mos ravishda yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **3,9 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Urganch shahri (**8,7 %**), Xiva tumani (**5,7 %**), Yangibozor tumani (**4,9 %**), Xiva shahri (**4,5 %**) va Hazorasp tumanida (**3,3 %**) kuzatildi.

3,9 %



96,1 %



Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda

Xorazm viloyati

3 025,3

Shovot

2 525,1

Urganch sh.

11 051,9

Yangiariq

2 230,9

Xiva sh

2 690,9

Yangibozor

1 690,5

Bog'ot

1 796,0

Gurlan

3 142,4

Qo'shko'pir

1 465,5

Urganch

3 582,7

Hazorasp

3 044,8

Tuproqqa'l'a

2 285,0

Xonqa


1 906,6

Xiva

1 344,9

2024- yilning yanvar-iyun oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 025,3** ming so'mni (2023- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **105,4 %**) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**11 051,9** ming so'm), Urganch (**3 582,7** ming so'm) va Gurlan (**3 142,4** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-iyun), foizda


Dehqon bozorlari

Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	1 162,2	111,3
Urganch sh.	195,9	102,9
Xiva sh.	56,7	102,1
Bog'ot	139,2	106,3
Gurlan	172,4	115,5
Qo'shko'pir	110,4	116,6
Urganch		
Hazorasp	129,2	125,0
Tuproqqal'a	14,4	116,6
Xonqa	72,0	101,6
Xiva		
Shovot	200,4	120,0
Yangiariq	43,4	102,6
Yangibozor	28,3	102,4


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmag'an holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-iyun)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-iyun)




Viloyat bo'yicha yilning yanvar-iyun uyushmagan savdo aylanmasi 1 162,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 111,3 % ni tashkil etdi.

Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 582,9 mlrd. so'mni (117,7 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 579,2 mlrd so'mni tashkil etdi (105,5 %).

2024- yilning yanvar-iyun oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **582,9 mlrd. so'mni** tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**201,3 mlrd. so'm**) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga hajmi va ulushi



2024- yilning yanvar-iyun oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **579,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **423,6** mlrd.so'm, qo'y va echkilar – **40,3** mlrd. so'mni, parrandalar – **2,5** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 279,5 mlrd. so'm	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 170,5 mlrd. so'm	1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 77,5 mlrd. so'm
48,3 %	29,4 %	13,4 %
Qo'ylar 41,6 mlrd. so'm	Echkilar 7,4 mlrd. so'm	Kurka, o'rdak, g'oz 1,7 mlrd. so'm
7,2 %	1,3 %	0,3 %
Tovuqlar 1,5 mlrd. so'm	Quyonlar 0,1 mlrd. so'm	Qushlar 0,01 mlrd. so'm
0,3 %	0,02 %	0,002 %
Otlar 0,1 mlrd. so'm		
0,03%		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **1 398** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **2** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1 396** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	199,4	109,7
Urganch sh.	80,3	103,6
Xiva sh.	11,3	108,1
Bog'ot	7,6	106,0
Gurlan	5,2	107,1
Qo'shko'pir	2,8	107,0
Urganch	35,2	133,1
Hazorasp	7,6	109,3
Tuproqqa'l'a	3,8	112,8
Xonqa	14,0	108,6
Xiva	4,3	112,9
Shovot	13,5	104,5
Yangiariq	7,4	108,0
Yangibozor	6,4	107,9

2024- yilning yanvar-iyun oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **199,4** mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan **9,7 %** ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **93,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Xorazm viloyati	2 510,5	91,4
Urganch sh.	2 187,4	88,2
Xiva sh.	25,2	119,7
Bog'ot	45,8	119,6
Gurlan	15,9	2,5 m.
Qo'shko'pir	8,0	119,1
Urganch	30,6	115,3
Hazorasp	88,2	119,1
Tuproqqa'l'a	8,2	117,6
Xonqa	47,4	120,0
Xiva	3,9	115,8
Shovot	17,8	118,2
Yangiariq	22,6	118,9
Yangibozor	9,5	119,7


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Urganch shahri (**2 187,4** mlrd. so'm), Hazorasp (**88,2** mlrd. so'm) va Xonqa (**47,4** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-iyun oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) **2 510,5** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **91,4** foizni tashkil qildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **2 151,3** mlrd. so'm (o'sish sur'ati – **168,8 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **359,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **24,4 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-iyun oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 172,0** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **3,3 %** ga o‘sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

5,7 %

180,7 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

94,3 %

2 991,3 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda, **2 991,3** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **119,7 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **94,3 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **2 280** tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **28** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 252** tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Hazorasp tumani (**138,9 %**) va Xiva shahrida (**131,9%**) kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan, foizda
Xorazm viloyati	3 172,0	103,3
Urganch sh.	1 690,1	117,0
Xiva sh.	91,8	131,9
Bog'ot	40,9	66,5
Gurlan	84,0	58,7
Qo'shko'pir	35,8	121,2
Urganch	588,0	81,5
Hazorasp	42,9	138,9
Tuproqqa'l'a	43,5	120,8
Xonqa	134,6	92,5
Xiva	191,7	119,3
Shovot	52,5	116,4
Yangiariq	115,2	89,1
Yangibozor	61,0	116,7